

## OB HAVO

*Isomiddinova Sarvinoz**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Xalqaro jurnalistika fakultetitalabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda global muammolarga sabab bo'layotgan dolzarb masala haqida so'z bormoqda, shuningdek uning hozirgi hayotimizdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar;** ob havo, iqlim o'zgarishlari.

Hozirgi kunda ko'plab muammolarga sabab bo'layotgan masala iqlim ob-havo kabi lar sabab ham paydo bo'lmoqda. Misol uchun, Ko'pgina qurg'oqchilik va o'simliklarni yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Aslini olganda, ob havo nima?

**Ob-havo** biror-joy yoki hudud atmosferasidagi meteorologik elementlarning uzuluksiz o'zgarishlari majmui, atmosferaning muayyan tabiiy jarayonlarga bog'liqholati. Bu jarayonlar atmosferada Quyosh energiyasi oqimi va Yer yuzasining o'zaro ta'siridagi fizik jarayonlar natijasida sodir bo'ladi. Odatda, Ob-havo. deganda Yer yuzasidagi ob-havo tushuniladi. Biroq aviatsiya, xalq xo'jaligi faoliyati rivojlanishi bilan erkin atmosfera ob-havosi tushunchasi ham tobora kengayib bormokda. Inson faoliyatining barcha jabhalari ob-havo bilan uzviy bog'liq. Ob-havo to'xtovsiz o'zgarib turadi. Ma'lum joyning aniq bir vaqtdagi ob-havosi meteorologik elementlar (temperatura, havo namligi, bulut, yog'in miqdori, shamol tezligi va yo'nalishi, qor bo'roni, momaqaldiroq, tuman va h.k.) bilan tavsiflanadi. Ob-havoda Yerning o'z o'qi atrofidagi harakatiga bog'liq bo'lgan davriy o'zgarish, shuningdek, asosan, havo oqimlarining almashinishiga bog'liq bo'lgan nodavriy keskin o'zgarishlar sodir bo'lib turadi.

Bundan tashqari ob havo haqida qiziqarli faktlar ham mavjud;

Chaqmoq urgan 10 odamning 9 nafari odatda tirik qoladi.

Yomg'irda "V12" vitamini mavjud.

Eman daraxti boshqa daraxtlarga qaraganda chaqmoq urishiga ko'proq moyillik bo'ladi.

Dunyodagi eng kuchli shamol Amerikaning Oklaxoma shtatida kuzatilgan. Shamolning tezligi soatiga 512 km ni tashkil etgan.

Nam havo quruq havoga nisbatan issiqni yaxshiroq ushlab turadi. Shuning uchun namlik kuchli mamlakatlarda havo sahrolardagidan ham issiqroq bo'ladi.

Chaqmoq osmondan yerga emas, yerdan osmonga qarab harakatlanadi.

Chaqmoq erkaklarni ayollarga qaraganda 10 karra ko'proq uradi.

Har yili momoqaldiroq yerga 10 mln tonna yaqin azot olib tushadi.

Kirlangan qor tozasiga qaraganda tezroq eriydi.

Olimlarning hisob kitoblariga ko'ra har soatda dunyo bo'yicha 760 marta momoqaldiroq kuzatiladi.